



FORENSIC EXAMINATION RESULTS BASED ON THE USE OF RIFLED-BARREL FIREARMS AS EVIDENCE FOR ESTABLISHING THE FACTS OF A CRIMINAL CASE

Abdulahob Zulfuqorov

*Associate Professor of the Department of Forensic Examinations at the Academy of the Ministry of Internal Affairs, Doctor of Philosophy in Law (PhD)
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: forensic identification, forensic examination, forensic ballistics examination, rifled firearms, identifiable, identifying object, samples for comparative study, research.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: The article examines the theoretical provisions of forensic studies of firearms cut by their traces on fired bullets. Based on the study and analysis of many scientific papers by specialists in this field, it was concluded that, in a general sense, there is no complete reflection of the existence of established conceptual foundations for identifying rifled firearms by traces on fired bullets. The scientific foundations and methodology of identification studies of rifled firearms by traces on fired bullets are analyzed, based on information in the scientific literature devoted to this area and the experience of practical work of experts, it is concluded that it is advisable to use samples for comparative studies as a means of determining the circumstances of a criminal act. In this regard, it is proposed to make appropriate additions to article 9 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Forensic examination".

SOYLI STVOLLI O'QOTAR QUROLLARDAN FOYDALANGANIGA KO'RA KRIMINALISTIK TADQIQOTLAR NATIJALARI JINOYAT ISHINI ANIQLOVCHI VOSITA SIFATIDA

Abduxob Zulfuqorov

*IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar kafedrasi dotsenti
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: kriminalistik identifikasiya, sud ekspertizasi, sud-ballistik ekspertizasi, soyli stvolli oʻqotar qurollar, identifikasiyalanayotgan, identifikasiyalovchi ob'ekt, taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalar, tadqiqot.

Annotatsiya: Maqolada soyli stvolli oʻqotar qurollarni otilgan oʻqlardagi izlariga koʻra kriminalistik tadqiqotlarining nazariy qoidalari oʻrganilgan. Soha mutaxassislarining koʻplab ilmiy ishlarini oʻrganish va tahlil qilish asosida umumiy ma'noda soyli stvolli oʻqotar qurollarni otilgan oʻqlardagi izlarga koʻra identifikasiya qilish boʻyicha shakllangan konseptual asoslarning mavjudligi haqida toʻliq fikr yuritilmagan deb xulosaga kelingan. Soyli stvolli oʻqotar qurolni otilgan oʻqlardagi izlarga koʻra identifikasiya qilish tadqiqotlarining ilmiy asoslari va metodikasi tahlil qilingan, bu yoʻnalishga bagʻishlangan ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga hamda ekspertlik amaliy ish tajribalariga tayanib, jinoyat ishining holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan vosita sifatida taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalar, prinsipial jihatdan, ashyoviy dalillar deb hisoblanishi mumkin degan xulosa qilingan. Shu sababli, Oʻzbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi toʻgʻrisida"gi Qonunining 9-moddasiga tegishli qoʻshimchalar kiritish taklif qilingan.

**РЕЗУЛЬТАТЫ КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ФАКТАМ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАРЕЗНОГО ОГНЕСТРЕЛЬНОГО ОРУЖИЯ КАК
СРЕДСТВО УСТАНОВЛЕНИЯ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ УГОЛОВНОГО ДЕЛА**

Абдувахоб Зулфукоров

Доцент кафедры криминалистических экспертиз Академии МВД

Доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: криминалистическая идентификация, судебная экспертиза, баллистическая экспертиза, огнестрельное оружие, идентифицируемый, идентифицирующий объект, образцы для сравнительного исследования, исследование.

Аннотация: В статье исследуются теоретические положения криминалистических исследований огнестрельного оружия нарезки по его следам на выстрелянных пулях. На основе изучения и анализа многих научных работ специалистов в данной области был сделан вывод, что в общем смысле нет полного отражения существования сформировавшихся концептуальных основ идентификации нарезанного огнестрельного оружия по следам на

выпущенных пулях. Проанализованы научные основы и методология идентификационных исследований нарезного огнестрельного оружия по следам на выстрелянных пулях, опираясь на информацию в научной литературе, посвященной данному направлению, и опыты практической работы экспертов, сделан вывод о целесообразности использования в качестве вещественного доказательства образцов для сравнительных исследований в качестве средства, служащего для определения обстоятельств совершения преступного деяния. В связи с этим предложено внести соответствующие дополнения в статью 9 закона Республики Узбекистан “О судебной экспертизе”.

Kirish. Sud ballistikasida qo‘llaniladigan kriminalistik nazariyalar orasida, albatta, kriminalistik identifikatsiya nazariyasining qoidalari asosiy o‘rinni egallaydi.

Tadqiqot mavzui doirasida so‘yli stvolli o‘qotar qurollarni otilgan o‘qlardagi izlariga ko‘ra kriminalistik tadqiqotlarining nazariy qoidalariga bevosita quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘qotar qurollarning snaryadlar sirtlari bilan ta'sirlashuvchi iz hosil qiluvchi qismlari mikrorelefining o‘ziga xosligi haqidagi ta'limot;
- identifikatsiya ob'ektlarining identifikatsiyaviy davri va nisbiy barqarorligi haqidagi ta'limot;
- snaryadlarda iz hosil bo‘lish mexanizmi haqidagi ta'limot;
- o‘qotar qurolning iz hosil qiluvchi qismlari mikrorelefi belgilarining otilgan o‘qlardagi izlarda aks etishining turli omillar tas'firlariga bog‘liqligi haqida ta'limot;
- sud-ballistik ekspertizasi ob'ektlardagi izlarni aniqlash, qayd etish va olish haqidagi ilmiy qoidalar;
- xulosalarni shakllantirishda o‘qotar qurol izlarining belgilari va xususiyatlarini baholash to‘g‘risidagi qoidalar.

Adabiyotlar sharxi. Ko‘pgina mualliflar kriminalistika identifikatsiya ta'limotining nazariy ahamiyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri kriminalistika uchun ham, isbotlash nazariyasi uchun ham muhimligini ta'kidlaydilar, chunki u dastlabki tergov jarayonida isbotlashning barcha bosqichlarida amaliy faoliyatda qo‘llaniladi [2;4;5;6;7;8;9;10;17;20;21]. So‘nggi yillarda kriminalistik identifikatsiya nazariyasi o‘z qo‘llanilish chegaralarini kengaytirdi va fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy jarayonlarda ham muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda [16].

Soha mutaxassislari “Sud-ballistik ekspertizasi yoki o‘qotar qurollar va jangovar o‘q-dorilar, ularga o‘xshash narsalar va ularni ishlatish izlari bo‘yicha maxsus bilimlar kriminalistikada, o‘qotar qurollar va jangovar o‘q-dorilarning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi, qurollar va jangovar o‘q-dorilarning ishlab chiqarilishi va moddiy qismlarining xususiyatlari, o‘q (snaryad)ning otilishi bo‘yicha ichki va tashqi ballistikaning qoidalari, izlar haqidagi ta’limot, kriminalistik identifikasiya hamda guruhiiy taalluqlilikni aniqlash nazariyalarini o‘rganish asosida shakllanadi” deb yozganlar [21, b.6].

Kriminalist-olimlarning bir guruhi “Kriminalistik identifikasiya – tadqiq etilayotgan voqealarga aloqador deb shubhalanilgan bir necha ob'ektlardan qaysi biri aynan qidirilayotgan ob'ekt ekanligini va shu yagona ob'ektning tadqiq etilayotgan voqea bilan qay tusda aloqadorligini aniqlash maqsadida qiyosiy tadqiq etishdir” [9, b.35] deb ta'kidlagan bo‘lsa, V.YA. Koldin kriminalistik identifikasiyani “yagona moddiy ob'ektni va uning tergov qilinayotgan ish bilan aloqasini aniqlash uchun, ularning aynanligini aniqlash vazifasini hal qilish maqsadida, izlarda va sezish mumkin bo‘lgan ideal (xayoliy) tasvirlarida aks etgan alohida mavjud bo‘lgan ob'ektlarni taqqoslash tadqiqotlari” [4, s.25] deb ta'riflagan va bu bilan identifikasiyaning huquqiy tabiatini (prosessual va noprossessual) kengaytirgan hamda idel tasvirlar va tavsiflardan aynanlikni aniqlashda foydalanish imkoniyatini ochib bergan.

Muhokama va natijalar. Kriminalistik identifikasiya ta'rifining bunday shakli kriminalistika va sud ekspertizasi rivojlanishining hozirgi bosqichida ushbu nazariyaning o‘shish dinamikasi va dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Kriminalistik identifikasiya nazariyasining asosiy qoidalari dialektik ayniyat haqidagi materialistik ta'limotdan kelib chiqadi. Shuning uchun biz tomonimizdan ko‘rib chiqilayotgan nazariya bilishning identifikasiya, farq, individuallik, xususiyat, belgi, barqarorlik kabi kategoriyalariga asoslanadi. Ushbu kategoriyalar kriminalistik identifikasiya ta'limotining asosini (yadrosi) tashkil etadi.

Soyli stvolli o‘qotar qurolni otilgan o‘qlardagi izlarga ko‘ra identifikasiya qilish ekspertizasining vazifalari sud ballistikasida yetakchi o‘ringa ko‘tarilgan. “Sud ballistikasini kriminalistik texnikaning mustaqil ilmiy sohasiga ajratish asosan qurollarni alohida (individual) identifikasiya qilish metodlarini kashf etish bilan bog‘liq. Bungacha sud ballistikasi to‘g‘risidagi ma'lumotlar kriminalistika va sud tibbiyotining turli bo‘limlarida tarqoq holda mavjud bo‘lgan va umumiy nazariya bilan birlashtirilmagan edi” [13 s.43].

“Ob'ektlarning o‘qotar qurollar, jangovar o‘q-dorilar va ularni ishlatish izlarining o‘ziga xosligi sud ballistikasini kriminalistik texnikaning bir sohasi yoki bo‘limi sifatida vujudga

kelishini shart qilib qo'ydi. Ushbu sohaning o'ziga xos yo'nalishlari mavjud va ular quyidagilardan iborat:

– o'qotar qurollar, jangovar o'q-dorilar va ularni ishlatish izlari belgilarining vujudga kelishi va o'zgarishi qonuniyatlarini o'rganish;

– ushbu ob'ektlarni daliliy ashyo sifatida aniqlash, qayd etish, olish va tadqiqot etishning qoida va usullarini ishlab chiqish; – o'qotar qurollar va jangovar o'q-dorilar, ularga o'xshash buyumlar, ularning alohida qismlari va ishlatish izlarini jinoyatlarni ochish va tergov qilish maqsadida kriminalistik tadqiq qilish vosita, usul va metodikalarini ishlab chiqish; – o'qotar qurollarning ishlatilishi bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishiga yengillik yaratgan sharoitlarni aniqlash maqsadida ekspertiza amaliyotini o'rganish va umumlashtirish hamda ushbu sharoitlarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish" [21, b.14].

Ushbu sohada mavjud bo'lgan asarlarning ahamiyatini inobatga olgan holda, ta'kidlash joizki, bu ishlarda umumiy ma'noda soyli stvolli o'qotar qurollarni otilgan o'qlardagi izlarga ko'ra identifikasiya qilish bo'yicha shakllangan konseptual asoslarning mavjudligi haqida to'liq fikr yuritilmagan.

Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni ishlab chiqishda texnik fanlar qoidalarini, kriminalistika va kriminalistik identifikasiya qoidalarini tizimli tahlil qilish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmagan bo'lsa kerak. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda ushbu masalani zamonaviy qurolsozlik texnologiyasi, sanoat va kompyuter texnologiyalarining hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ko'rib chiqish kerak. Shu munosabat bilan ko'plab g'oyalar, fikrlar va ilmiy qarashlar bo'yicha mavjud nazariy qoidalarni qayta ko'rib chiqish va to'ldirish kerak.

Soyli stvolli o'qotar qurolni otilgan o'qlardagi izlarga ko'ra identifikasiya qilish tadqiqotlarining zamonaviy ilmiy asoslari ushbu turdagi ekspertizalarga oid bo'lgan asosiy qoidalarni o'z ichiga olishi kerak. Bularga quyidagilar haqidagi qoidalar kiradi:

– tadqiqot ob'ektlarini va ulardagi izlarni alohidalashtirish (individullashtirish) maqsadida, ularning tasniflash;

– iz hosil bo'lish mexanizmining qonuniyatlari;

– o'qotar qurol qismlarining iz hosil qiluvchi sirtlarining o'ziga xosligi (individualligi);

– o'qotar qurollar qismlarining iz hosil qiluvchi qismlarining va otilgan o'qlardagi izlarining identifikasiyaviy davri, shuningdek ularning nisbiy barqarorligi;

– otilgan o'qlarda iz hosil bo'lishi mexanizmining, ichki va tashqi tushdagi turli hodisalar va jarayonlarning ta'siri bilan oldindan belgilab qo'yilgan o'zgaruvchanligi;

– ekspertizalarni o'tkazishda foydalaniladigan tadqiqot metodlari, asbob-uskunalar va qurilmalar.

Soyli stvolli o'qotar qurollarning otilgan o'qlardagi izlariga ko'ra aniqlash tadqiqotlarining asoslariga asoslariga kelsak, ta'kidlash kerakki, sud ekspertizasida ob'ektlarni tasniflash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, faqat ishlab chiqilgan tasniflash tizimi mavjud bo'lganda, maqbul metodologiyani tanlashga asoslangan holda tadqiqot ob'ektlarni to'liq va har tomonlama o'rganish mumkin.

Otilgan o'qlardagi qurol izlari belgilarini tasniflash bo'yicha nazariy qoidalarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Tasnif (arab. – saralash, tartibga solish), klassifikasiya – ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar sistemasi. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi. Fanni o'rganishda bunday tasniflash qulaylik tug'diradi. Tasniflashda bo'linuvchi va bo'luvchi tushunchalar o'zining qat'iy o'rniga ega bo'ladi. Tasniflash natijasida fanda muhim ahamiyat kasb etuvchi jadvallar, chizmalar, grafiklar, kodekslar vujudga keladi. Tabiiy va sun'iy tasniflar birbiridan farq qiladi. Tabiiy tasnif ob'ektlarning muhim belgilariga asoslanadi. U ilmiy tasnifning natijasi va muhim vositasi bo'lib, bilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Sun'iy tasniflash asosida ob'ektlarning nomuhim belgilari yotadi va turli-tuman predmetlarni tartibga solish uchun xizmat qiladi" [22, b.154].

Har qanday tasnifni tuzish tamoyillari haqida gapirganda, aytish joizk, tasnif birinchidan, to'liq bo'lishi kerak, ya'ni ko'rib chiqilayotgan tizimning barcha elementlarini o'z ichiga olishi kerak, ikkinchidan, tasnifga kiritilgan elementlar tizimning faqat bitta bo'g'inida bo'lishi kerak.

Kriminalistika va sud ekspertisasi, shu jumladan sud ballistikasi bo'yicha ilmiy ishlarda ob'ektlar, izlar, belgilarning turli xil tasniflari mavjud [3;11;12;14;15;18;19;21;]. Biroq, kriminalistik identifikasiyada ob'ektlarni identifikasiya qilinadigan (aynanligi aniqlanadigan) va identifikasiya qiluvchi (aynanlikni aniqlovchi) deb tasniflash yetakchi o'rinni egallaydi. Xasanov SH.X., Turabbayev X.A., Xusanovlarning fikricha "Aynanligi aniqlanayotgan (identifikasiyalanayotgan) ob'ekt – bu birinchidan, ma'lum bir guruhga mansubligi yoki aynan shu ob'ektga xos xususiyatlari tadqiqot jarayonida aniqlanayotgan ob'ekt; ikkinchidan – identifikasiya qilish uchun tadqiq etilayotgan ob'ekt. ... Aynanlikni aniqlovchi (identifikasiyalovchi, qabul qiluvchi, aks etuvchi, qayd etuvchi) ob'ekt – aynanligi aniqlanayotgan (identifikasiyalanayotgan), ob'ektning o'zaro ta'siri natijasida izi va belgilari qolgan ob'ektlar yoki ob'ektning identifikasiyalanishi uchun zarur bo'lgan ob'ekt" [21, b.263].

Yuqoridagilardan jinoyat ishining holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan vosita sifatida taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalar, prinsipial jihatdan, ashyoviy dalillar deb hisoblanishi mumkin degan xulosa kelib chiqadi, xususan: "Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish

uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi" [1]. Bu fikrlarni T.V. Averyanova ham ma'qullaydi [2, s.409-410].

Xulosa. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi birinchi qismiga "hujjatlar" so'zini o'rniga "jinoyat ishining holatlarini aniqlash uchun ahamiyatga bo'lgan boshqa narsalar va hujjatlar" so'zlarini kiritish va quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi.

"9-modda. Tekshirish ob'ektlari

Ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalari, boshqa moddiy ob'ektlar, murdalar va ularning qismlari, jinoyat ishining holatlarini aniqlash uchun ahamiyatga bo'lgan boshqa narsalar va hujjatlar, shuningdek sud ekspertizasi o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish ob'ektlari bo'lishi mumkin. Tekshirishlar tirik odamga nisbatan ham o'tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 81-m. [Elektron resurs]: – URL: <https://lex.uz/docs/111460>.
2. Аверьянова Т.В. Судебная экспертиза. Курс общей теории. – М., 2008. – С.480.
3. Идентификация гладкоствольного огнестрельного оружия по следам на снарядах. / Чулков И.А., Зайцев В.Ф., Латышов И.В. – Волгоград, 2000. – 32 с.
4. Колдин В.Я. Судебная идентификация. – М., 2002. – 528 с.
5. Криминалистика: Дарслик. 1-qism // prof. G'.A. Abdumajidov tahr.ost. – T., 2003. – 362 б.
6. Криминалистика. Дарслик. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2018. – 515 б.
7. Криминалистика. Т.В. Mamatqulov. Дарслик. – Т., 2015; – 457 б.
8. Криминалистика. SH.T. Djumanov. Дарслик. – Т., 2017.– 476 с.
9. Криминалистика. Mualliflar jamoasi. Дарслик. Т., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. – 532 б.
10. Криминалистика: учеб. для вузов / Т. В. Аверьянова [и др.]; под ред. Р. С. Белкина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М., 2006. – 992 с.
11. Чулков, И.А. Криминалистическое исследование патронов стрелкового огнестрельного оружия: лекция / И.А. Чулков, И.И. Никитин. – Волгоград, 2001. – 24 с.
12. Криминалистическая экспертиза оружия и следов его применения. Учебник. Ч. 1 / Под ред. В.А. Ручкина, И.А. Чулкова. – Волгоград, 2004. – 316 с.
13. А.В. Кокин. Концептуальные основы криминалистического исследования нарезного огнестрельного оружия по следам на пулях. / Диссертация на соискание ученой

степени доктора юридических наук: Специальность 12.00.12 – криминалистика; судебно-экспертная деятельность; оперативно-розыскная деятельность. – М., 2015. – 388 с.

14. Плескачевский В.М. Оружие в криминалистике. Понятие и классификация. – М., 2001. – 343 с.

15. Предмет, объекты и задачи судебно-баллистической экспертизы. / Латышов И.В., Никитин И.И., Чулков И.А. – Волгоград, 2001. – 32 с.

16. Россинская Е.Р. Судебная экспертиза в гражданском, арбитражном, административном и уголовном процессе. – М., 2005. – 688 с.

17. Рустамбаев М.Х., Норбоев А. Криминалистика: Чизмалар альбоми. – Т., 2002. – 247 б.

18. Ручкин В.А. О концептуальных основах криминалистического учения об оружии и следах его применения. / Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук: Специальность 12.00.12 – криминалистика; судебно-экспертная деятельность; оперативно-розыскная деятельность. – М., 2000. – 456 с.

19. Современное огнестрельное, пневматическое, газовое оружие и боеприпасы к нему: учебное пособие / Жигалов Н.Ю., Ручкин В.А., Шапочкин В.И., Степанов Г.Н. – Волгоград, 2001. – 139 с.

20. Trasologik ekspertiza. R.R. Shakurov, SH.X. Kamilov, T.B. Mamatqulov va boshq. Darslik. – Т., 2012. – 354 б.

21. Xasanov SH.X., Turabbayev X.A., Xusanov A.D. Ballistik ekspertiza: Darslik. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2013. – 444.

22. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Harfi T. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent. – B.154. / https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20K%20harfi.pdf.